

## Yolqin To'ychiyev filmlarida mualliflik izlanishlar

Doston Hojimatov,  
O'zbekiston davlat sanat va madaniyat instituti  
"Kino, televideniye va radio rejissyorligi"  
kafedrasi mudiri v.b. katta o'qituvchi  
[dostonhojimatov@gmail.com](mailto:dostonhojimatov@gmail.com)

**Annotatsiya:** Kino odamlar hayotiga o'zgarishlar kirta oldi, kino san'atining maqsadi ham aynan shu, yani odamlarni mushohada qilishga sal bo'lsada hayot va voqelarni fikrlab tahlil qilishga chaqiradi. Mualliflik filmlari ham aynan shu jixati bilan etiborli.

Mualliflik filmlaridagi eng e'tibor tortadigan jihat bu rejissyorning tasviriy ifodalar va ramzlardan qay darajada foydalanishida. Xususan, To'ychiyev ramzlarga to'la filmlar yaratish bo'yicha eng oldinda turuvchi ijodkorlardan sanaladi.

**Kalit so'zlar:** Mualliflik filmi, Tasviriy ifoda, Ramz, Musiqa, aktyor, fikr mushohada.

### Исследование авторства в фильмах Ёлкина Тойчиева

Достон Хожиматов,  
Государственный институт искусств  
и культуры Узбекистана  
Старший преподаватель и Заведующий кафедрой  
"Режиссуры кино, телевидения и радио"

[dostonhojimatov@gmail.com](mailto:dostonhojimatov@gmail.com)

**Аннотация:** Кино смогло внести изменения в жизнь людей, и в этом состоит назначение кинематографа, то есть он призывает людей к вдумчивому анализу жизни и событий. Наиболее заметным аспектом авторских фильмов является степень использования режиссером образных выражений и символов. В частности, Тойчиев считается одним из первых создателей фильмов, наполненных символами.

**Ключевые слова:** Авторский фильм, Визуальное выражение, Символ, Музыка, актер, мнение.

Research of authorship in the films of Yolkin Toychiyev

Doston Hojimatov

The Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Senior Lecturer and Interim chair of

“Cinema, TV and radio directing”

[dostonhojimatov@gmail.com](mailto:dostonhojimatov@gmail.com)

**Abstract:** Cinema has brought changes in people's lives, and this is the purpose of cinematography, that is, it calls people to analyze life and events thoughtfully. The most noticeable aspect of author's films is the degree to which the director uses figurative expressions and symbols. In particular, Toychiyev is considered one of the foremost creators of films full of symbols.

**Key words:** Author's film, Visual expression, Symbol, Music, actor, opinion.

“Ruxiyatni tarbiyalash”, bu necha asrlar davomida insoniyat uchun eng muhim tamoilardan biri sanalib kelinadi va hali ham bu tamoil yildan yilga rivojlanib o'z aktulligini yoqotmasdan kelyabdi. Insoniyat yaralgandan buyun o'zlikni anglash, insoniy tuyg'lularni saqlab qolish, odamiylik mulkni keljak avlodga qoldirish yo'lida bod bod targ'ib qilib kelinadi. Bu yo'lda dunyoviy va diniy bilimlar o'rganiladi, adabiyodlarda, musiqada, suratlarda, bu o'z aksini topadi, Asrlardan asrilarga o'tib kelyatotgan ulug' mutaffakkirlarimiz, Yassaviy, Buxoriy, Farg'oniy, Motrudiy, Farobiy, Beruniy, Navoiy, Bobur, hullas ro'yxatni uzoq davom etirishimiz mumkin, asarlarida ham aynan insoniylikka imoniylikka undash, yaqqol qizil bayroq bo'lib o'tadi. Sa'nat ham bu borada yetakchi o'rinlarda turadi, ayniqsa bugungi kunda yosh sohalardan biri kino sa'nati jamiyatga kengroq tasir qiluvchi kuchga aylanib ulgurgan. Kino bu borada anchayin samarali ishlar qilib bo'ldi, Buyuk Italiyalik kino rejissyori Fedriko Felliniy aytgan “Dunyodagi eng katta mafkura, bu, kinematografiya” so'zlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Rostan ham kino odamlar hayotiga o'zgarishlar kirta oldi, kino san'atining maqsadi ham aynan shu, yani odamlarni mushohada qilishga sal bo'lsada hayot va voqelarni fikrlab tahlil qilishga chaqiradi. Mualliflik filmlari ham aynan shu jixati bilan etiborli.





Mualliflik filmlaridagi eng e'tibor tortadigan jihat bu rejissyorning tasviriyl ifodalar va ramzlardan qay darajada foydalanishida. Xususan, To'ychiyev ramzlarga to'la filmlar yaratish bo'yicha eng oldinda turuvchi ijodkorlardan sanaladi. Masalan, uning ayrim filmlarida qo'llanilgan tasviriyl ifodalar va ramzlarga e'tibor qaratamiz. "Afg'on" filmi voqealari keng maydonlar va tog'lar orasida olingan. Tabiiyki, bu aholi mana shu tog'lar ortidagi voqealardan bexabar, ular atrofidagi olam bilan yashashadi, tog'lar ortidagi hayotga kimningdir qo'li ham yetmaydi. Film syujetiga ko'ra qishloqqa ikkita askarning jasadlari keltiriladi. Mana shu jasadlarni qo'riqlash uchun yana bir askar ham kelgan. Qizig'i, aynan, jasadlar solingan mashina ortida bir guruh qishloq odamlari hind filmi tomosha qiladi. Qo'shiqdagi o'yin-kulgu va yumoristik sahnalardan ular zavqlanadi. Bu ifodaning ikki xil talqin qilish mumkin: birinchisi, ana shu davr odamlari bu turdagi jasadlarning kelishiga o'rganib qolishgan yoxud ko'nikkan, ikkinchisi, ular o'zgalar dardiga sherik bo'lmaydilar. Choyxonachi Fayzulla tobutlarning birida o'z o'g'li borligin bilgach, nola qiladi va tobutni tan olmay olib chiqib tashlamoqchi bo'ladi va unga buning kuchi yetmaydi – bu o'z-o'zidan mavjud tuzumni haydab chiqarish qiyinligini anglatadi. Fayzulla dosh bera olmay o'z joniga qasd qiladi va g'alayon yomg'ir orqali bosdi-bosdi qilinadi. Go'yoki, nima bo'lgan bo'lsa bo'ldi, yomg'ir hammasini yuvadi va bu voqea unutiladi. Marhum Samadning to'yi keng daryoning bo'yida bo'ladi. Daryodagi cheksizlik ifodasi azob-uqubatlarning oxiri qayerdaligini hech kim bilmasligini anglatadi. Kuyov nobud bo'lganini bilsa-da odamlar yor-yor aytib raqsga tushishadi. Bu hayot sinovlariga moslashish, ko'nikish va xuddi telbalardek yashashni anglatadi. Bu bir nechitasi, xolos. Aslida filmdagi har bir tasviriyl ifodanang o'z maqsadi bor. Filmdagi ramzlarga e'tibor qarataylik. Abdullo ismli cho'pon qamchi bilan havoni kaltaklaydi va bu go'yoki dunyoni jazolashga o'xshaydi. Tinimsiz qo'shiqlardan va voqealardan zadalangan Raisning arzandasi radioni urib sindiradi. Bu uning isyonini anglatadi. Arzanda Samadning qaylig'iga uylanadi. Bu yerda ikkita ramzning biri qiz tarafidan qo'llanilgan – ya'ni, u kalish olib chiqib beradi va bu birga sen bilan ketaman degan ma'noni anglatadi, ikkinchisi, butun film davomida ovoz chiqarmagan askar shu kalish voqeasidan so'ng davomli xushtak chaladi. Bu hammasi iziga tushayotganiga ishora qiluvchi chaqiriq edi. Film nihoyasidagi beshik hayotning davom etishini anglatadi, magnitafondagi dutor ohangiga raqs tushayotgan yigitga rafiqasi do'ppini uzatadi – bu har qanday zamonda ham o'zligini saqlab qolishga ishora bo'lsa, ajab emas. Mana shunday qilib, bir filmda ma'no tashuvchi mana shunday qo'shimchalar talaygina.

"Chashma" filmi ham to'la to'kis ramz va tasviriyl ifodalarga asoslangan mualliflik filmidir. Xususan, tasviriyl ifoda sifatida quyidagi holatlarni ko'z ilg'aydi. Voqea yo'ldan boshlanadi va bu yo'lga Orzu belbog' mo'ralab tikiladi. Bu hayot uzun yo'l degani va har kim unga o'z mintaliteti va tarbiyasi orqali nazar tashlaydi. Jarayonda qator poezd relslari ko'rsatiladi. Tanlash uchun yo'llar ko'p degan ma'noda, albatta. To'y bo'layotganini



anglatish uchun hovliga qatorlashtirib milliy matolar terilgan. Orzu an'anaviy rasmlarni ado etish uchun ko'chaga chiqadi. Butun qishloq manzaralaridagi ifodalar insonlarning maqsadlarini va istaklarini gavdalantiradi.

Filmdagi ramzlar borasida fikr yuritadigan bo'lsak, tandirchi usta uchun har bir tandiri – farzand degan taassurot uyg'otadi. U o'zini buyuk hunarmand deb hisoblaydi va u yasagan ko'zaning tandirdan farqi yo'q, faqatgani dastagi bilan farq qiladi. Orzu uning uyidan aynan mana shu ko'zaning bo'lagini olib ketadi. Bu degani bu xonadondagilarning hayotga nisbatan ko'ngillari sinib bo'lgan. Erning xotinga nisbatan ko'ngli sinib bo'lgan. Orzu militsiyaga boradi. Militsiya rangli kubik o'ynab o'tirgan bo'ladi. U o'zgalarning muammolarini hal etishga majbur, biroq kubikning ma'nosi shuki, uning o'z hayoti butunlay chalkashib ketgan va uni tartibga keltirish iloji yo'q. Orzu tegirmonchini behush holidagi shifoxonaga olib boradi. Tegirmonchi unga ikki dona yong'oq beradi va bu yong'oq qonni ko'paytirishini va yuzni yorug' qilishini aytadi. Aslida yong'oq bu juftlik ma'nosini anglatadi va hayotda o'ziga mos juftiga ega insonlar hech qachon yig'lamaydi. Tegirmonchining qizi Orzuga pul beradi va bu u inson hamma narsaga pul bilan qarashini anglatadi. Vokzalda u bir ayol bilan tanishadi va u ayol unga qo'g'irchoq beradi. Ma'nosi hamma narsasi bor, farzandi va eri bor badavlat xonim o'zini xuddi kimningdir qo'lida qo'g'irchoqdek ilojisiz va yolg'iz ko'radi. Uning xonadonida qat'iy belgilangan doira shaklidagi rels bo'yicha poezd harakatlanadi. Bu ana shu ayolning bir xil va tutqin hayotini aks ettiradi va u doim o'z o'qi atrofida gina aylanadi.

Daydi mushukka mehribonchilik esa – odamzotning o'z ota-onasi o'rniga boshqalarga mehr berayotganiga ishora, yirtilgan rasm bo'laklari esa darz ketgan oilaviy munosabatlarga ishora, yetim qo'zining bog'langani ota-onadan keyin hech kim erkin bo'la olmasligini anglatadi.

Mana shu tarzda butun film turli ma'nolarni keltirib chiqaruvchi ramzlarga asoslangan.

“Ma'suma” filmi ham o'z o'rnida qator ramzlarga asoslanuvchi qiziq epizodlarga ega. Aslini olganda, jamiytdagi erkaklarning mas'uliyatsizligi sabab ayollar kuchli hayot qiyinchiliklariga duch keladi. Masalan, uylar tomini ayol kishi supurishi – oila tashvishlariga ayol javobgar bo'lib qolganini anlatsa, ayol kishining ayovsiz atraksionda o'zgarma va sovuqqon harakatlanishi – har qanday tashvishlarda ham ayol kishi o'zligini saqlayotganini bildiradi. Eshik ostonasida omonat turgan o'sma piyolasi – oiladagi keksa onaning omonatda yashayotganiga ishora bo'lsa, uyning poezd yonida joylashishi bu uyda kimdir kutilayotgani oshkor etib turadi. Hayoti izdan chiqayotgan Nasiba to'y bo'layotgan olomonga qarshi harakatlanadi – bu go'yo odamlar baxt sari, Nasiba esa baxtsizlik sari harakatlanayotganini tushuntirayotgandek...

“Orzu ortida” filmidagi eshikka ilingan yo'riqnoma e'tiboringizni tortadi. Bu yo'riqnomaga eshikdan chiqayotanda gaz va chiroqlarni o'chiq ekanligiga ishonch hosil





qilish haqida yozilgan. Oxir-oqibatda yolg'iz qolgan ona yo'riqnomani olib tashlaydi. Bu qat'iy qoidalar asosida yashash orqali yaqinlarni yo'qotib qo'yish mumkinligini anlatadi.

Umuman, Yolqin To'ychiyevning rejissurasidagi o'ziga xoslik ssenariyga ensiklopedik tarzda yondashishida va siz tomoshabin sifatida har gal ko'rsangiz, nimanidir o'zingiz uchun kashf etasiz. Ayniqsa so'ngi yillarda rejissyor tomonidan yaratilgan "Faridaning ikkiming qo'shig'i" va "Evrilish" filmlari kino ixlosmantlari tomonidan juda yuqora falsafaga ega filmlar qadorida tilga olina boshladi. Bu ikki film ham dunyo kino festivallarda yuqori natijalarga erishib kelmoqda, xatto "Faridaning ikkiming qo'shig'i" filmi, yaqin yillar avval nufusli Oskar kino taqdimotiga "O'zbekiston kenomatografiyasi" tomonidan "Xorijiy eng yaxshi film" nominatsiyasiga taklif qilinayotgan edi, ammo bazi bir sabablar bilan film yuborilmadi, achinarli xolat, shunga qaramay film hali hamon nufusli festivallarda yuqori o'rin olib kelmoqda. Bu ikki filmga ham alohida mavzu, hozircha filmlar kinofestivallarda qatnashib o'rin olib turishsin kegin yana qaytamiz.

### **Rejissyor qaysi aktyorlarni tanlaydi?**

Rejissyor ijodini kuzatar ekansiz, rang barang aktyorlar jamoasi bilan o'z maqsadiga erishganiga guvoh bo'lasiz. Favqulodda dramatik aktyorlarga ko'proq murojaat qiladi. Xususan, mahoratli aktrissalar Dilbar Ikromova, Saida Rametova, Nigora Karimboyeva, Shodiya Abduqodirova, Zulxumor

Mo'minova, Shafolat Rahmatullayeva, Yulduz Hamidova, Shahzoda Matjonova, Asal Shodiyevani bir necha filmlarida turli personajlarda ko'rasiz.

Mahoratli aktyorlarimizdan Farhod Abdullayev, Adiz Rajabov, Akbarxo'ja Rasulov, Nozim To'laxo'jayev, Baxtiyor Qosimov va boshqalarni bir qancha obrazda ko'ramiz.

Rejissyor faoliyatida o'z o'rnida o'zi uchun ayon bo'lgan, sinovidan o'tgan aktyorlar jamoasi ham mavjud, yangi aktyor va aktrissalarni sinovdan o'tkazishga ham cho'chimaydi. Shuningdek, rejissyor xatto kichik epizodlarga yirik aktyorlar jamoasini taklif etishi mumkin. Masalan, "Chashma" filmida Shafolat Rahmatullayeva, Ra'no Yarasheva, Xosiyat Husanova, Shohida Ismoilova, Vazira Yunusova, Gulxumor Abdullayeva kabi tajribali aktrissalar kichik epizodlardagina namoyon bo'lishadi. "Uchar qiz" filmida Dilbar Ikromova, Gulxumor Abdullayeva, Sevara Soliyeva kabi aktrissalar epizod rollarni ijro etgan. "Poyma poy" filmida Asal Shodiyevani juda kichik epizodda ko'ramiz. Guvohi bo'lsak, uning personajlari orasida ayol kishi obrazlari ko'proq va umumiy ma'noda, rejissyorni "ayollar taqdiri bilimdoni" deyish o'rinli.

### **Filmlardagi musiqiy yechimlar qanday darajada?**

Odatda, bir mualliflik filmida muallifning fikri va yo'nalishiga butun jamoa bo'ysunadi. Operatorlar jamoasidan tortib, grimyorgacha. Shu hususda, tanlangan musiqalar va qo'shiqlar ham har bir rejissurada muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, "Afg'on" filmida dutor kuyidan filmning boshlanishida ham, tugallanishida ham foydalaniladi. Bu aytilgan muammolar faqat o'zimizga xos va o'zimiz hal etishimizga

ishora. Butun filmning yarmiga qadar odamni g'ashiga tegadigandek qo'shiqlar jaranglab turadi. Bu ana shu davrda odamlarni chalg'itish jarayonini o'zida ifoda etadi. Masalan, jasadlar kelib, psixologik iztirob uyg'ongan paytda radioda quyidagi qo'shiq jaranglayotgan edi:

“Chamanga gul sochildi-yo, Chakkanga gul taqildi...”

“Chashma” filmi voqealari ham milliy ohanglar uyg'unligida sodir bo'ladi. Hayotiy muammolarga izma-iz duch kelayotgan Orzuning nogoh hayolida ushbu qo'shiq jarang sochadi:

“Beqasam to'nlar kiyib, buncha mani kuydurasan,

Har zamonda bir kelib, voh, beajal o'ldurasan...”

O'zbek kinosida Yolqin To'ychiyev faoliyati mualliflik filmlar yaratish sohasida alohida o'rin va ahamiyat kasb etishi ma'lum bo'ldi. Uning filmografiyasi tarkibidagi insonparvarlik haqidagi filmlar, aynan gumanizm va hissiy munosabatlar borasidagi mintalitetga mos haqiqatlar tomoshabinni befarq qoldirayotgani yo'q. Bu o'z o'rnida o'zbek kinosini jahon ekranlariga olib chiqish va bu borada nufuzini oshirishga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda. Shu sababdan, bir qator kino mutaxassislari To'ychiyevni ijodiga befarq emas.

Ijod borasida uning faoliyatini o'rganish har qanday o'quvchiga o'ziga xos bilim va ko'nikma beradi.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ш.Ризаев “Изтироб санъати” Т. “Янги аср авлоди” 2013.
2. Х.Абулкасимова “Рождение узбекского кино”, Т. 1965.

### Электрон ресурслар

[www.wikipedia.ru](http://www.wikipedia.ru)

[www.kinoxit.ru](http://www.kinoxit.ru)